

**SHOIR ANVAR OBIDJONNING ONA TILI VA O'QISH
SAVODXONLIGI DARSLIKLARIGA KIRITILGAN ASARLARI TAHLILI VA
ULARNI O'RGATISH USULLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13785976345>

Obbosova Mukhtasarkhon Bakirali qizi
Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti magistranti,
mukhtasarkhonobbosova31@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-9947-1909>
+998 91 157 0997

Annotatsiya

Maqolada adabiyotning ajralmas va muhim qismlaridan bo`lgan o`zbek bolalar adabiyotiga ulkan hamda salmoqli hissa qo`shgan adib Anvar Obidjon hayoti, ijodi va boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi darsliklarida berilgan asarlari tahlili aks etgan. Bolalar adabiyoti fanining maqsad va vazifalari ham atroflicha tushuntirilgan.

Tayanch so'zlar

O`zbek bolalar adabiyoti, bolalar adabiyoti fani, Anvar Obidjon, ona tili va o`qish savodxonligi.

Annotation

The article reflects the life and work of the writer Anvar Obidjon, who made a great and important contribution to Uzbek children's literature, which is one of the integral and important parts of literature, and the analysis of his works given in elementary school mother tongue and reading literacy textbooks. The aims and objectives of the science of children's literature are also explained in detail.

Key words

Uzbek children's literature, science of children's literature, Anvar Obidjon, mother tongue and reading literacy.

Аннотация

В статье отражены жизнь и деятельность писателя Анвара Обиджона, внесшего большой и важный вклад в узбекскую детскую литературу, которая является одной из неотъемлемых и важных частей литературы, а также анализ его произведений, данный в начальной школе мамой. учебники по языку и

грамотности чтения. Также подробно излагаются цели и задачи науки о детской литературе.

Ключевые слова

узбекская детская литература, детское литературоведение, Анвар Обиджон, родной язык и читательская грамотность.

Buyuk olim A.Disterveg aytganidek : “O’quvchini mehnat qilishga o’rgat, uni nafaqat mehnatni sevishga, u bilan shunday uyg’unlashishga ko’niktirginki, toki mehnat uning vujudiga singib ketsin, uni shunga o’rgatki, uning uchun o’z kuchi bilan biron-bir narsani bilib ololmaslik aqlga sig’maydigan holat hisoblansin; u mustaqil o’ylamog’i, izlanmog’i, o’zini ko’rsatmog’i, o’zining uyg’onmagan qobiliyatlarini rivojlantirmog’i, o’zini sobitli inson qilib yetishtirmog’i lozim”. [1,3]

Anvar Obidjon Farg’ona viloyati Oltiariq tumanining Poloson qishlog’ida 1947-yilning 25-yanvarida xizmatchi oilasida tug’ilgan. [2,17]

“Bulbulning cho’pchaklari”, “G’alati maktublar”, “Kumush uy”, “Gurungdag’i gaplar”, “Ajoyibxon”, “O’zimizning ansambl”, “Ignalarim chiroyli”, “Mening kollektsiyam”, “Shirin so’ylar jajjivoylar”, “Kalamushlar kemasi”, “Siz eshitmagan qo’shiqlar”, “Dalalardan bolalarga”, “Osmondan tushgan sozanda” turkum she’rlari fikrimizga dalildir. Uning “Ona yer” [3,126], (1974), “Masxaraboz bola” (1980), “Olovjon va uning do’stlari” (1983), “Bahromning hikoyalari” (1984), “Ey, yorug’ dunyo” (1983), “Ketmagil” (1985), “Bezgakshamol” (1985), “Juda qiziq voqea” (1987), “Oltin yurakli avtobola” (1988), “Dahshatli Meshpolvon” (1990) kabi she’riy, nasriy kitoblari chop etildi. [4, 86]

Chinakam ijod namunalarigina o’quvchilarning onggi va tafakkuriga kuchli ta’sir eta olishi mumkin. Shunday ekan bu kabi asarlar o’zining tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, insonlarni ezgulik sari yetaklashi, bunyodkor g’oyalar targ’ib qilinishi bilan boshqa asarlardan ajralib turishi kerak. Bu xildagi she’rlar esa o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, atrofdagi bo’layotgan xodisalarni anglagan holda ulardan to’g’ri xulosa chiqarishga undaydi. [5, 18]

Xususan, bolalarga adabiyot namunalarini o’rganish uchun tashkil etilgan darslarda o’quvchilarga mustaqil fikrlashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish bilim, ko’nikma, malaka va kompitensiyalarini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar muvvaffaqiyat garovidir. O’sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, barcha masalalarda qo’rqmasdan o’z fikrini bildira oladigan barkamol shaxslar qilib tarbiyalash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, tafakkurning mustaqilligi bilim olishdagi mustaqillikka tayanadi desak aslo mubolag’a bo’lmaydi. [6, 118]

Biz bilamizki, Anvar Obidjon ijodi bolalar adabiyotiga yangicha yo'nalish olib kirdi. She'rlarida nafaqat kitobxon ongiga ta'sir qilish, balki uning qalbiga kirib borish bosh maqsad qilib olingan. chunki ko'ngilda qattiq o'rashgan narsagina ongda uzoq vaqt saqlanadi. Fikrimizning dalili sifatida bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev ta'rifini keltirib o'tamiz. "80-yllarga kelib Anvar Obidjon bolalar she'riyatidagi ob havoni bir yo'la yangiladi". [7, 86]

Uning ko'pgina asarlarida o'ta jozibador humor ustunlik qilayotgani sezilsada aslida esa yurtning ozodligi va qadr qimmatini xalqning sha'nini kamshituvchilarga nafrat milliy hurnikka tashnalik, o'zlikni anglashga da'vat yangrab turadi. Shoirning mahorati shundaki, u bolalar olamining o'zgacha ekanligini tub tubidan ko'ra oladi. Ichki dunyosini, o'y - xayollarini, mitti qalbidan o'tayotgan fikrlarni nozik did bilan tasvirlab beradi. Inson bolasi borki, nurga talpinadi, quyoshga intilib yashaydi. Chunki quyoshning zarrin nurlari bor joyda, yorug'lik bor joyda albatta ezgulik g'alaba qiladi. Anvar Obidjonning "o'zimning quyoshim" she'ri ezgu maqsadni ilgari surishi bilan kitobxonga o'zgacha shodlik va ma'naviy yuksaklik bag'ishlaydi. [8, 156]

Ona quyosh, aksingni
Chizdim yo'lakka.
Sen hammaga mehribon,
O'zing bo'lakcha.
Nur tushmagan joylarda
Kezarmish kulfat
Yo'lagimda hech qachon
Bosmasin zulmat.

Ko'rib turibmizki she'r sodda, samimiyl hamda oddiy misralarda bitilgan. Bolalarning quyoshni go'zal qilib tasvirlaganliklari va quyoshga murojaat qilayotganliklari ifoda etilib, quyosh nuriga o'zgacha bir ilohiylik bag'ishlagan. [9,176]

Anvar Obidjon she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, undagi soddalik bilan birgalikda kuchli humor ostida yashiringan achchiq haqiqatni ham ko'rishimiz mumkin. Bu orqali esa bolalarga ramziy ma'noda tasvirlangan obrazlarni insonga qiyoslab tushuntirib berish orqali ularning mustaqil fikrlashlariga imkon yaratib beriladi. [10,16]

Quyidagi "Tekinxo'r" she'rini o'qir ekanmiz tengsizlikni, boshqalar hisobiga kun ko'ruvchi insonlarni tanqid qilganligini sezamiz bu esa bolalarni kelgusi hayotga tayyorlovchi ular atrofida uchrab turuvchi vaziyatlardan biri ekanligini va bunday jirkanch ishlarni qilmaslikka da'vat qilish kerakligi nazarda tutilmoqda.

Qumursqavoy Topib uvoq,

Terga botib Tortdi uzoq

Chumchuq kelib Sekingina,

Yutdi-qo'ydi Tekingina.

Anvar Obidjonning "Navro'z taronasi" she'rini o'qir ekanmiz tabiatning go'zal tasviri ifodasiga guvoh bo'lamiz va olamning bu ajib ko'rinishi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ma'lumki bolalar tasavvur olami kattalarga nisbatan kuchli bo'ladi. She'rdagi tasviriy ifodalarni ular ko'z oldilariga keltirishib navro'z bayramini eslashadi. [11, 83]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O'ljas Sulaymonov ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(4), 2013-2018. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00834>

2. I.Asimova va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi kitobi. Umumiyo'ta ta'lim maktablarining 1-sinf uchun darslik.T. 2021 3. K. Muslimova. Anvar Obidjon ijodida an'ana. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2007y

3. LA.Karimov. Sog`lom va barkamo! avlod uchun. Istiqlol va ma`naviyat. - Toshkent: O`zbekston 126 -bet.

4. Barakayev R. Jonajonim she'riyat. (80-yillar o'zbek bolalar she'riyati haqida ba'zi qaydlar). - Toshkent: Cho'lpon,1997. - B. 86

5. Safarov O. Oliy o'quv yurtlarida bolalar adabiyotini o'qitish muammolari. - Toshkent: Til va adabiyot ta'limi, 1999. - B. 18.

6. Anvar Obidjon.O'g'irlangan pahlavon: She'rlar, doston va ertaklar. - Toshkent: Cho'lpon, 2006. - 118 b.

7. Barakayev R. Jonajonim she'riyat. (80-yillar o'zbek bolalar she'riyati haqida ba'zi qaydlar). - Toshkent: Cho'lpon,1997. - B. 86.

8. Adashboyev T. Osmondagi darvoza. - Toshkent: Cho'lpon, 2012. - 156 b.

9. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarnmg vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3), 176-180.

10. Abdullayeva, O. O. Q. (2021).Adabiyot darslarini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish. Студенческий вестник,16(161)

11. Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon: She'rlar, doston va ertaklar. - Toshkent: Cho'lpon, 2006. - B. 83.